

Date: 19<sup>th</sup> November-2024

**XORIJIY TILLARNI O'RGANUVCHI O'SPIRINLARDA OG'ZAKI VA YOZMA  
NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

**Sharapova Dildora Baxtiyarovna**

International school of finance and technology science instituti o'qituvchisi,  
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), [sharapovad@isft.uz](mailto:sharapovad@isft.uz)

**Qadamova Orzugul**

International school of finance and technology science instituti Xorijiy tillar (ingliz  
tili) yo'naliishi, 1-bosqich, 24-XTA-01 guruhi talabasi, [qadamovaor zugul@gmail.com](mailto:qadamovaor zugul@gmail.com)

**Mirxodiyeva Sarvinoz**

International school of finance and technology science instituti Xorijiy tillar (ingliz  
tili) yo'naliishi, 1-bosqich, 24-XTA-01 guruhi talabasi, [mirhodiyevasarvinoz@gmail.com](mailto:mirhodiyevasarvinoz@gmail.com)

**Annotatsiya:** O'smirlik va o'spirinlik davri muloqotga ehtiyojning ortishi, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarining yangi bosqichga ko'tarilishi bilan ahamiyatli. Og'zaki nutq suhbatdoshdan erkinlik talab qilsa, yozma nutq ichki hissiyotlarni ifodalovchi asosiy vosita sanaladi. Ushbu ikki nutq til o'rganishda muhim ahamiyat kasb etishi va uni rivojlantirish dolzarbligi mazkur maqolada o'z ifodasini topadi.

**Kalit so'zlar:** retorika, emotsiya, ekspressiv nutq, intonatsiya, noverbal va verbal nutq.

**Аннотация:** Подростковый возраст знаменателен увеличением потребности в общении, развитием навыков устной и письменной речи на новый уровень. В то время как устная речь требует свободы от собеседника, письменная речь считается основным средством выражения внутренних чувств. В статье выражается важность этих двух дискурсов в изучении языка и актуальность его развития.

**Ключевые слова:** риторика, эмоция, экспрессивная речь, интонация, невербальная и вербальная речь.

**Annotation:** Adolescence and teenage years are marked by an increase in the need for communication, the development of oral and written skills to a new level. While oral speech requires freedom from the interlocutor, written speech is considered the main means of expressing internal feelings. The article expresses the importance of these two discourses in the study of language and the relevance of its development.

**Keywords:** rhetoric, emotion, expressive speech, intonation, non-verbal and verbal speech.

**Kirish.**

Nutqning hayotimizdagi ahamiyati haqida mutafakkirlarimiz ham o'z fikrlarini bildirib o'tgan. Jumladan, Alisher Navoiy o'zining ko'plab asarlarida nutq va tilning inson ongidagi o'rni haqida fikr yuritgan. Uning qarashlarida til – bu, insonning dunyoqarashi va qalbining aksidir. Navoiy nutqni ilohiy voqelik haqiqati va go'zallikni ifodalovchi kuchli vosita sifatida tasavvur etgan. U tilning nafaqat axborot uzatishda, balki inson ruhining boyliklarini ifodalashda ham muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Navoiy "Tilni yaxshilikka ishlat, axloqni yaxshi qilishga chora", "Birinchi so'zni ongdan chiqarma, ikkinchi so'zni

Date: 19<sup>th</sup> November-2024

so'zlashdan oldin o'ylang" kabi fikrlari orqali Navoiy nutqning ongli va ma'naviy jihatlarini ta'kidlaydi. Nutq faqat so'zlar yig'indisi emas, balki uning maqsadi odamlarni yaxshilikka chaqirish, ularga o'rgatish va tarbiyalashdir, deb aytib o'tgan.

Ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniy fikricha, til va nutqni faqat axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki madaniyat va ilm-fan tarqatish, insonlarning dunyoqarashini shakllantirish vositasi sifatida ham ko'rgan. Uning fikricha, to'g'ri va ilmiy nutq jamiyatni rivojlantirishga yordam beradi. U "Nutqni ilm bilan bog'la, chunki ilmnинг yuksalishi so'zlar bilan bo'ladi", "Axborot tarqatish uchun nutq kuchli vosita bo'lishi kerak, lekin uning haqiqiy maqsadi insonni yuksaltirishdir" kabi fikrlari bilan nutqning ilmiy va ma'naviy jihatlariga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu fikrlarning davomi sifatida Fazliddin Rojiy nutqni axloqiy va tarbiyaviy jihatlariga ahamiyat qaratgan. Ularning fikricha, nutq nafaqat axborot, balki ta'lim va tarbiya vositasi hamdir. Nutqning axloqiy jihatlari, odamlarni yaxshi ishlarni qilishga undaydi va ularni yomonliklardan saqlaydi.U "So'zlar qalbning va aqlning aksidir, ularni ehtiyyotkorlik bilan ishlatish kerak", "Nutq faqat axborot almashish uchun emas, balki insonlarni tarbiyalash va yuksaltirish uchun ishlatilishi kerak", deydi

O'spirinlar uchun til o'rganish jarayoni nafaqat grammatika va lug'atni o'zlashtirishdan iborat, balki og'zaki (speaking) va yozma (writing) nutqni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Bu ikki turdag'i nutq o'rtaqidagi farqlarni va ularning o'zaro aloqasini tushunish, o'spirinlarning nutq ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Nutq – bu, inson tomonidan tarixiy va ijtimoiy tajribani o'zlashtirish hamda uni avlodlarga yetkazish yoki o'zaro aloqa o'rnatish jarayoni bo'lib, bu asosan tilning ishtiroki bilan amalga oshadi.

Og'zaki nutq – bu, tilni jonli muloqotda ishlatishdir. O'spirinlarda og'zaki nutqni rivojlantirish, birinchi navbatda, ular o'z fikrlarini to'g'ri va ravon ifodalashni, boshqalar bilan samarali muloqot qilishni o'rganishlari uchun kerak. Bunda so'z boyliklarini oshirish zarurati mavjud. Ko'pchilik o'smir va o'spirinlarda mana shu masala bilan bog'liq muammolar mavjud. Bunga asosiy sabab ulardag'i qo'rquvlar va atrofdagilarning ularga bo'lgan munosabatidir. Agarda boshqalar ham ularga ishonch bildirib, ularni qo'llab-quvvatlashsa, ularda o'zlariga bo'lgan ishonch ortadi va ular qachon-ki, muloqot qilayotganda yoki tomoshabinlar oldida so'zlayotganlarida xatoliklarsiz so'zlay oladilar. O'spirinlar og'zaki nutqini yaxshi tushunishlari va tushuntirishi uchun yana bir samarali usuli bu, tinglash qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu esa jonli suhbatlarda mantiqiy va aniq javoblar berishni osonlashtiradi.

Nutqni ravon va boy qilish uchun o'spirinlar yangi so'zlar va iboralarni o'rganishlari kerak. Buning uchun ular ko'proq kitob o'qishlari, kundalik hayotdagi turli so'zlarni eshitishi va o'zlashtirishi, shuningdek, o'rgangan so'zlarini ishlatishlari orqali so'z boyliklarini oshirishlari mumkin.

Yozma nutq – bu, og'zaki nutqning yozma shakli bo'lib, o'spirinlarning fikrlarini aniqlik bilan, muayyan tartibda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu nutq ko'nikmasi ham hayotimiz davomida kerakli hisoblanadi. Yozma nutqning aniq va to'g'ri bo'lishi uchun grammatik va imloviy qoidalarni yaxshi bilish zarur. O'spirinlar yozishda

Date: 19<sup>th</sup> November-2024



xatoliklarni kamaytirish uchun doimiy ravishda o‘z yozgan matnlarini tahlil qilishlari zarur. Yozma nutq orqali o‘spirinlar o‘z fikrlarini ketma-ket va mantiqan rivojlantirishni va matn yoki essay yozayotganda ularning tuzilishini ham o‘rganishlari kerak. Bunda yozma matnni kirish qismi, asosiy qism va xulosa qismlaridan iborat esseyni to‘liq va ravon yozma nutq hisoblanadi. Qo‘srimcha qilib aytganda, ular yozma nutqni shakllantirayotganda matnlarida bog‘lovchi so‘zlar, foydali lug‘atlardan foydalanishlari kerak.

Og‘zaki va yozma nutq bir-biriga bog‘liq bo‘lib, biri rivojlansa, ikkinchisiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun, dunyoqarash kengligi o‘z navbatida og‘zaki va yozma nutqning ham yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi.

O‘spirinlar uchun og‘zaki nutqni rivojlantirishda asosan muloqotda faol ishtirok etish, fikrini aniq va ravon bildirish va turli nutq janrlaridan foydalanish zarur bo‘ladi, jumladan, munozara, fikr bildirish, suhbatlashish kabilarda ishtirok etish muhimdir. Yozma nutqda esa ularga fikrlarni aniq tartibda ifodalash, imloviy qoidalarni tushunish, ijodiy yozma ishlar yaratish zarur.

Nutqni rivojlantirish orqali shaxsning kognitiv sohasini rivojlantirish va ijtimoiy faolligini oshirishga erishish mumkin. Nutqning tezligi va “ritmi” tilga qarab o‘zgaradi. Masalan, fransuzlar va italyanlar odatda tez gaplashadilar, o‘zbek tilida esa nutq odatda sekinroq va aniqroq bo‘ladi. Bu farq tilning fonetik strukturasiga va undagi bo‘shliqlarga bog‘liq.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi-ki, faqat so‘zlar emas, balki ovozning intonatsiyasi, tembri va nutq tezligi ham odamning his-tuyg‘ulari va niyatlarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, odamlarning qo‘rqish, quvonch yoki g‘azabni qanday ifodalashlari nutqning tovushi orqali sezilishi mumkin. Nutqning yoshga oid xususiyati bo‘yicha 2-3 yoshga kelib, bolalar ilk to‘liq jumlalarni tuzish boshlanadi. Ammo ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi-ki, nutqning asosan rivojlanishi uchun 6-7 yoshgacha bo‘lgan davr juda muhim, chunki bu vaqtida miyaning tilga oid markazlari to‘liq shakllanadi.

Nutq va xotira o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik mavjud. Ayniqsa, so‘zlar va ma’lumotlarni yoddan aytishda ko‘plab xotira tizimlaridan foydalaniladi. Tahliliy nutqda ma’lum bir maqsadga erishish uchun fikrni to‘g‘ri va samarali ravishda eslab qolish zarur. Shuningdek, alfavit va nutq tarixan aloqadorlikka ega. Alfavitlarning shakllanishi nutqning yozma shakli sifatida rivojlanishiga olib keldi. Dastlabki yozuv tizimlari (masalan, fir‘avnlar va mesopotamiya yozuvlari) asosan rasmiy yoki pictografik bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan har bir tovush uchun alohida belgi ishlab chiqilgan. Bu evolyutsiya nutqni va fikrni yozma shaklda ifodalashga imkon berdi. Tillarni o‘zgartirishning “nutq tizimi”ga ba’zi tillarda bir so‘zni qanday talaffuz qilish yoki o‘zgartirishning nutq tizimiga ta’siri o‘rganilib, bunda ba’zi tillarda nutqni o‘zgartirishning kichik detallari, masalan, pauza yoki intonatsiyalar odamlarni xato tushunishiga olib kelishi mumkin.

Nutqning yana bir qancha turlari mavjud.

1. Ijtimoiy kommunikativ nutq – bu, nutq turi oddiy muloqotda ishlataladi. U odamlar o‘rtasida axborot almashinuvi va o‘zaro tushunishni ta’minlash uchun xizmat

Date: 19<sup>th</sup> November-2024

qiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad, fikrlarni boshqalarga yetkazish, emotsiyonal va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, do’stlar, oilalar yoki ish joylarida kundalik suhbatlar olib borishdan iborat.

2. Tahliliy nutq – bu, nutq turi kengroq fikrlash va tahlil qilishni talab qiladi. U o‘rgatish, tushuntirish yoki ilmiy xulosalar chiqarish maqsadida ishlataladi. Bundan ko‘zlangan maqsad, muammolarni aniqlash va ular haqida mulohaza yuritish, raqamlar, dalillar yoki voqealar asosida fikrlarni tahlil qilish, fikrlarni izchil va aniq tarzda taqdim etishdan iborat.

3. Retorik (sheriklik) nutq – bu, retorik nutq biror auditoriya yoki guruhni ta’sir qilish uchun ishlataladi. Bu nutq turi asosan motivatsiya berish, ishontirish yoki taassurot qoldirish uchun mo‘ljallangan. Bundan ko‘zlangan maqsad, odamlarni ishontirish, ularni qaysidir maqsadga undash, biror g‘oya yoki qarorni targ‘ib qilish, emotsiyonal ta’sir ko‘rsatish va auditoriyani ilhomlantirishdan iborat.

4. Ijtimoiy (sotsial) nutq – bu, nutq turi jamiyatda, turli guruhlar va madaniyatlar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad, jamiyatdagi an’ana va urf-odatlarni saqlab qolish, o‘zaro hurmat va tushunishni rivojlantirish, madaniy qiymatlarni va me’yorlarni yetkazish kabilalar kiradi.

5. Formal (rasmiy) nutq – bu, rasmiy vaziyatlarda ishlataladi va odatda aniq, qat’iy, xushmuomalalik bilan aytildi. Bundan ko‘zlangan maqsad, rasmiy uchrashuvlarda, konferensiyalarda, yig’ilishlarda fikrlarni aniq va rasmiy tarzda yetkazish, muayyan lavozim yoki majburiyatlarga ega bo’lgan odamlar o‘rtasida muloqot qilish kabilalar kiradi.

6. Nonverbal (so’zsiz) nutq – bu, nutq turi so’zlar orqali emas, balki jismoniy harakatlar, mimikalar, yuz ifodalari va boshqa belgilarning yordamida amalga oshiriladi. Bundan ko‘zlangan maqsad, so’z orqali etkazib bo’lmaydigan ma'lumotlarni ifodalash, hissiyotlarni va fikrlarni ifodalashda yordam berish, jamiyatda o‘zaro tushunish va aloqani ta’minlash kabilardan iborat.

7. Emotsional nutq – bu, nutq turi odatda his-tuyg’ularni, kayfiyatni yoki hissiy holatlarni boshqalarga yetkazishda ishlataladi. Bundan ko‘zlangan maqsad, o‘z hissiyotlarini boshqalarga ifodalash, emotsiyonal bog‘lanish o‘rnatish, biror hodisa yoki vaziyatga qarshi his-tuyg’ularni bayon etish kabilalar kiradi.

8. Instruktiv (o‘rgatuvchi) nutq – bu, nutq turi ma'lum bir harakatni amalgalash uchun yoki faoliyatni o‘rganishni o‘rgatishda ishlataladi. Bundan ko‘zlangan maqsad, biror vazifani yoki faoliyatni qanday bajarish haqida ma'lumot berish, qoidalarni tushuntirish va aniq yo'l-yo'riqlarni ko‘rsatish kabilardan iborat.

9. Yumoristik nutq – bu, nutq turi kulgili yoki hazil-mutoyiba elementlarini o‘z ichiga oladi. U asosan diqqatni qaratish, auditoriyani o‘ziga jalb qilish uchun ishlataladi. Bundan ko‘zlangan maqsad, odamlarni kuldirish, kayfiyatni ko‘tarish, so‘zlarni o‘zgacha, kulgili tarzda ishlatalish, jamoada iliq va do’stona muhit yaratish kabilalar kiradi.

Nutqdagi gender tafovutlar bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erkaklar va ayollar nutqni turlicha ishlata dilar. Masalan, erkaklar ko‘proq ma'lumot berishga, ayollar esa his-tuyg’ularni ifodalashga moyil bo‘lishi mumkin.

Date: 19<sup>th</sup> November-2024

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozim-ki, nutq insonlarning o‘zaro muloqoti, tafakkuri, va ijtimoiy aloqalari uchun eng muhim vositalardan biridir. Nutqning biologik, psixologik, madaniy va ijtimoiy jihatlari uning murakkab va ko‘p qirrali tabiatga ega. Nutqni o‘rganish orqali biz faqatgina tilni emas, balki insonlarning ichki dunyosini, muloqot qilishni va ijtimoiy munosabatlarni ham yaxshiroq tushunishga imkon topamiz. Nutqning har bir turi turli vaziyatlar va maqsadlar uchun mos keladi. Ijtimoiy muloqotdan tortib, rasmiy taqdimotlarga, har bir nutq turi o‘ziga xos tarzda odamlar o‘rtasida ma’lumot almashish, fikr bildirish va emotsiyal aloqalar o‘rnatishda xizmat qiladi. Nutqning turlarini tushunish va ulardan samarali foydalanish, insonning kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :**

1. Abduvahob Mavdaliyev O‘ZME Birinchi jild . Toshkent . 2000-yil
2. Baxtiyarovna, S. D. (2022). Oqituvchining talim texnikasi va talim jarayonidagi kasbiy maxoratida mimika va pantamimika, verbal va noverbal tasir etish mehanizmlari. *Scientific Impulse*, 1(3), 381-384.
3. Erkinovna, R. I., & Marg’ubaxon, A. (2023). Nutq rivojlanishining fiziologik mexanizmlari. *Science Promotion*, 1(1), 63-71.
4. Soliyev, I., & Valiyev, N. (2023). Nutq o ‘stirish mashg ‘ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanishi. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(6), 87-90.
5. Baxtiyarovna, S. D. (2022). Xotira: mustahkamlash yo’llari, usullari va vositalari. *Scientific Impulse*, 1(4), 328-333.
6. Baxtiyarovna, S. D., Gavhar, G., & Jasmina, N. (2022). Pedagogik faoliyatda kreativ yondoshuv. *Scientific Impulse*, 1(3), 385-388.
7. Baxtiyarovna, S. D. Shukurullo ogli, NJ (2022). Tibbiyot xodimlarining hissiy-emotsional xususiyatlari. *Scientific Impulse*, 1(3), 439-443.
8. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. Қ. (2022). Мактабгача ёшдаги болаларнинг психофизиологик ривожланиши. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 681-689.
9. Ziynat, O., & Nafosat, S. (2023). Psixologiyada ong va ong haqidagi nazariyalar. *Scientific Impulse*, 1(8), 857-860.
10. Internet ma’lumotlari: <https://scholar.google.ru/scholar>